

Xizmatlar sohasining rivojlanishi – iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy yo'nalishlari orasida ustunlik mavqeini egallaydi.

Bu murakkab ko'p qirrali mexanizm bo'lib, savdo va transportdan tortib ta'lim va sug'urta xizmatlarigacha bo'lgan keng doiradagi faoliyatni qamrab oluvchi zamonaviy iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Restoran va mehmonxona, sataroshxona va ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari va ta'lim muassasalari, sayyohlik kompaniyalari, auditorlik va konsalting kompaniyalari, banklar, poliklinikalar, sanatoriylar, dam olish uylari - bularning barchasi xizmatlar sohasiga taalluqlidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 84194,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 16520,4 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 12,7 % ni tashkil etdi.




Xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 33,1 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
O'zbekiston Respublikasi	84194,4	112,7	2521,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2561,9	117,9	1365,7
viloyatlar:			
Andijon	4371,1	111,6	1420,2
Buxoro	3559,7	112,0	1872,8
Jizzax	1848,5	118,4	1360,3
Qashqadaryo	3925,9	114,5	1216,7
Navoiy	2149,4	111,1	2186,6
Namangan	3338,9	112,2	1207,7
Samarqand	5442,5	110,1	1426,2
Surxondaryo	3123,4	110,7	1209,6
Sirdaryo	1163,1	123,3	1395,5
Toshkent	6046,7	108,5	2079,5
Farg'ona	4998,6	111,4	1352,0
Xorazm	2514,2	114,7	1365,6
Toshkent shahri	27846,1	115,3	11031,7

Shuningdek, eng katta ulush Toshkent (7,2 %), Samarqand (6,4 %), Farg'ona (5,9 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlarida qayd etilgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi va o'sish sur'atlari, %




Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (1,4 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,0 %) qayd etildi.

Joriy davrda eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (123,3 %), Jizzax (118,4 %), Xorazm (114,7 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi (117,9 %) va Toshkent shahrida (115,3 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar hajmining oshishiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlarning 2,2 marta ko'payganligi, shuningdek, savdo xizmatlari o'sishi ta'sir ko'rsatdi, taqqoslama narxlarda o'sishi 10,3 % ni tashkil etdi.


Sirdaryo viloyatida xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan alohida xizmat turlarining ko'rsatkichlari



Nisbatan past o'sish sur'atlari Toshkent (108,5 %), Samarqand (110,1 %) va Surxondaryo (110,7 %) viloyatlarida kuzatildi.

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 457,0 ming so'mga oshdi va 2521,6 ming so'mga teng bo'ldi, o'sish 10,7 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm




Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Toshkent shahri etakchi o'rinni egallaydi. Bu erda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 11031,7 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.

Namangan (1207,7 ming so'm), Surxondaryo (1209,6 ming so'm), Qashqadaryo (1216,7 ming so'm) viloyatlarida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi boshqa hududlar bilan taqqoslaganda nisbatan past.

2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 461,5 ming so'mga oshdi.


Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining 2019-yil yanvar-may oylariga va 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan oshishi, ming so'm



Toshkent shahrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1990,2 ming so'mga oshdi. Shu bilan birga, o'tgan davrga nisbatan 2017,0 ming so'mga o'sish kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Sirdaryo (21,1 %), Jizzax (16,0 %), Xorazm (12,8 %) va Qashqadaryo (12,2 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi (16,2 %) va Toshkent shahrida (13,0 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida
hududlar kesimida aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**




Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (107,1 %), Samarqand (107,8 %), Surxondaryo (108,3 %), Navoiy (109,2 %), Farg'ona (109,4 %) va Andijon (109,6 %) viloyatlarida qayd etildi.

Xizmatlar faoliyatining xilma xilligi, shuningdek, xizmatlar sohasidagi turli faoliyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ushbu sohaning jadal rivojlanishi uchun omil bo'lib xizmat qiladi.

Misol uchun, mehmonxona xizmatlari umumiy ovqatlanish xizmatlari, savdo va maishiy sohaga tegishli xizmatlarni chetlab o'tmaydi. Mazkur holatlarda birining boshqasiga chambarchas bog'liqligini kuzatish mumkin.

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rilayotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, Internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.


2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha umumiy xizmatlar tarkibida ustun xizmat turlarining taqqoslanishi, %



Deyarli barcha hududlarda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida moliyaviy va transport xizmatlari, savdo, aloqa va axborotlashtirish kabi xizmatlarning ulushini ortishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (156,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (109,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (108,2 %), ta'lim (108,2 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (107,8 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	84194,4	112,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4758,3	108,2
Moliyaviy xizmatlar	14916,7	156,5
Transport xizmatlari	24836,5	106,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	11242,3	102,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2493,1	106,3
Savdo xizmatlari	21308,8	104,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2596,9	104,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2697,6	108,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1253,7	107,8
Ijara xizmatlari	1694,6	102,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1386,7	103,4
Shaxsiy xizmatlar	2053,4	104,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1529,6	109,3
Boshqa xizmatlar	2668,5	103,3

Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (102,2 %), boshqa xizmatlar (103,3 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (103,4 %) kuzatildi.

Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida transport xizmatlari ulushi eng katta 29,5 % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmog'ini kengaytirish, binolar va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni davom etishi bilan bog'liq.

2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (25,3 %), moliyaviy xizmatlar (17,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,2 %), shuningdek ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (3,1 %) kuzatildi.

Transport davlatning hududiy va iqtisodiy birligini ta'minlagan holda yo'lovchilar va yuklarni tashishda zarur bo'lgan ehtiyojlarni qondirib, jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda respublikamiz transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga va barcha yo'nalishlarda hamda transportning barcha turlarida yuklar va yo'lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun noyob imkoniyatlarga ega.

2019-yil yanvar-iyun oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, %



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 45,3 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining hajmi 22,3 % ni tashkil etdi. O'z navbatida, transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 14,2 % ga yetdi. Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarning ulushi 10,3 %, yordamchi transport faoliyati esa – 7,9 % qayd etildi.

Ma'lumot uchun: *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq boshqaruvini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 10 iyuldagi PQ-4389-son Farmoniga binoan joriy yilning oxiriga qadar O'ztrans yagona interaktiv axborot tizimi bazasida "Yuk tashishlar monitoringi" axborot platformasi ishlab chiqiladi.*


U yuk tashuvchilar tomonidan tovarning kuzatuv hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish, yuk jo'natuvchilar va uni qabul qilib oluvchilar tomonidan real vaqt rejimida tovarlar harakatini monitoring qilishni ta'minlaydi.

Shuning asosida, 2020-yil 1-yanvardan boshlab yuk tashuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan tovarning kuzatuv hujjatlarini Axborot platformasida majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazish tartibi joriy etiladi (<https://www.spot.uz>).

Savdo tarixiy jarayonning eng qudratli omillaridan biri hisoblanadi. Tarixda bunday davr yo'qki, jtimoiy hayotga uning ta'siri kamroq yoki ko'proq darajada ko'rsatilmagan payti bo'lmagan, mamlakat ichida oddiy ayirboshlash bilan boshlanib va butun dunyo bo'yicha tarqalgan murakkab tijorat operatsiyalari tarmog'i bilan yakunlanadi.

Har xil turdagi savdo munosabatlari doimo ijtimoiy hayotning turli jihatlariga javob beradi.

Savdo xizmatlari



2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 25,3 % ni tashkil etib, bu 21308,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uchi – 66,5 % ga to'g'ri keladi.


2019-yil yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 26,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda chakana savdo xizmatlarining yuqori ulushi Qashqadaryo (82,7 %), Andijon (82,6 %) va Navoiy (80,1 %) viloyatlarida kuzatildi.

Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida ahamiyatsiz, uning ulushi 43,7 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Biroq, Toshkent shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi - 47,9 %. Andijon viloyatida eng kichik ulush - 10,8 %.


Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Farg'ona (8,6 %), Toshkent (7,8 %) viloyatlarida, Toshkent shahri (8,4 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (7,1 %) qayd etildi.

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Surxondaryo (4,0 %), Jizzax (4,6 %), Qashqadaryo va Namangan (4,9 %) viloyatlarida qayd qilindi.

Bugungi kunda etakchi o'rinlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 14916,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5559,3 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari, %




2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Sirdaryo (2,2 marta), Jizzax (97,3 %), Namangan (83,1 %), Buxoro va Navoiy (74,1 %), viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (81,5 %) kuzatilmoqda.

Boshqa hududlarga nisbatan shu davr uchun o'sish sur'atlari Toshkent (149,3 %), Qashqadaryo(150,4 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (147,9 %) sezilarli emas.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,4 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida
moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



Ushbu xizmatlarning ulushi Surxondaryo (93,3 %), Sirdaryo (92,3 %), Qashqadaryo (91,5 %), Samarqand (92,1 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (92,5 %) ahamiyatga ega. Eng past ko'rsatkich Toshkent viloyatida (86,1 %) qayd etildi.

Hududlar o'rtasida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta xizmatlari hajmi Toshkent (12,6 %) va Namangan (10,4 %) viloyatlarida ustunlik qiladi.

Sug'urta xizmatlarining eng past ko'rsatkichlari Andijon (5,5 %), Surxondaryo (5,6 %), Samarqand (5,7 %) viloyatlarida, Toshkent shahri (5,7%) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (5,8 %) kuzatildi.

Ma'lumot uchun: *Standard & Poor's, Fitch Ratings, Moody's Investors xalqaro reyting agentliklarining kredit reytingida O'zbekistonning xorijiy va milliy valyutadagi pozitsiyasi "BB-" va "B1" darajasini saqlab turibdi. Bu degani, reytingning prognozi barqaror va bu agentlik ekspertlarining fikricha, respublika yaqin va o'rta muddatda xavflarning muvozanatini saqlab qolishda davom etadi (<https://ru.tradingeconomics.com>).*

Yaqin xorij mamlakatlarning kredit reytinglari


	Standard & Poor's	Fitch Ratings	Moody's Investors
Rossiya	BBB-	Baa3	BBB- ↑
Qozog'iston	BBB-	Baa3	BBB
Ozərbayjon	BB+	Ba2	BB+
Gruziya	BB- ↑	Ba2	BB
Belarus	B	B3	B
O'zbekiston	BB-	B1	BB-
Armaniston		B1 ↑	B+ ↑
Tojikiston	B-	B3	
Ukraina	B-	Caa1	B-
Qirg'iziston	NR	B2	

Zamonaviy biznesni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit hozirgi zamon infratuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Yirik bozorlar, Internet-savdo, xom-ashyo, komponentlar va texnologiyalarni izlash, reklama va marketing faoliyati, jarayon va texnologiyalar tizimini boshqarish, shuningdek raqamli tizimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari zamonaviy tashkilotning majburiy xususiyati hisoblanadi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 4758,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 8,2 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 82,1 % ni tashkil etadi.


**2019-yil yanvar-iyun oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyot xizmatlari 5,5 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 5,6 %, dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 3,2 %, boshqa xizmatlar – 3,6 % ni tashkil etadi.

Telekommunikatsiya xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax (99,2 %), Sirdaryo (98,2 %), Samarqand (97,8 %) va Qashqadaryo (97,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi, %



Toshkent – etarli darajada rivojlangan axborot-kommunikatsiya infratuzilmasiga ega hududdir.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda bu erda kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar (10,0 %), nashriyotchilik xizmatlari (8,9 %), dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar (5,8 %), axborot sohasidagi xizmatlar (5,1 %) da eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lib, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida esa telekommunikatsiya xizmatlari ulushi Toshkent shahrida nisbatan past bo'lgan, bu 69,0 % ni tashkil etdi.


2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2019-yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2697,6 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 8,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi. 2019 yil yanvar-iyun oylarida 1140,7 mlrd. so'mga yetdi. Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu erda joylashganligidir.

2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Xorazm viloyatida – 133,5 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (119,9 %), Buxoro (119,4 %), Sirdaryo (111,3 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (120,3 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida eng past o'sish sur'ati Surxondaryo viloyatida - 89,6 % qayd etildi.

2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil etdi, hajmi esa 429,0 mlrd. so'mga oshdi va 2493,1 mlrd. so'mga etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 80,5 % bilan ustunlik qiladi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 114,9 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 19,5 % ni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Toshkent shahrida 1111,2 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 200,2 mlrd. so'mga oshishi qayd etildi. Buning o'sishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, ularning hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 149,7 mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Sirdaryo viloyatida – 26,8 mlrd. so'm qayd etilib, 4,1 mlrd. so'mga ko'paydi.


2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'ginini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 1253,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlarning sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida ulushi va hajmi




Hududlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Toshkent shahri egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 139,0 mlrd. so'mga ko'paydi. Shu bilan birga, nisbatan yuqori hajm Toshkent (113,7 mlrd.so'm) va Farg'ona (97,9 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng kichik hajmi Sirdaryo (17,4 mlrd. so'm) va Navoiy (21,5 mlrd. so'm), viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (28,3 mlrd. so'm) qayd etildi.


2019-yil 1-iyul holatiga mamlakatda jami faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot va korxonalar soni 371,9 ming birlikni tashkil etdi, ulardan 245,9 ming birligi xizmatlar sohasiga jalb qilingan, bu 66,1 % ga yetdi. Ularning o'sishi 20,7 % ga ko'paydi.

**2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 185,1 ming birligi kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi. 2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalarini umumiy sonidagi ularning ulushi 59,8 % ni tashkil etdi. Ularning soni 38,7 ming birlikga ko'payib, 26,4 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan
kichik biznes korxonalarining tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019-yil 1-iyul holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (36,9 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-iyul holatiga, xizmatlar sohasida 203,7 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari -33,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,1 %, tashish va saqlash - 6,2 %, axborot va aloqa - 3,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,1 %, boshqa turlar - 45,3 % ni tashkil etgan.


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning sonini o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslasak, 2019-yil 1-iyul holatiga kelib u, 42,3 ming birlikga oshdi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar sonining
2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ko'payishi
(2019-yil 1-iyul holatiga, ming birlikda)**



Kichik biznes sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning soni 38,7 ming birlikga ko'paydi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes
sub'ektlariga tegishli korxonalar sonining
2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ko'payishi
(2019-yil 1-iyul holatiga, ming birlikda)**



Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

71-230-80-59